



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 15-avgust, seshanba,

97 (23.818)-son

**KUN
HIKMATI**
Rahbarning mahorati,
farosati, fidoyiligi
huzuriga kelgan kishi
talabini qondirishda
emas, balki uning ana
shu ehtiyojini avvalroq
anglashida bilinadi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

Hozirda viloyatimizda 128 mingdan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Ishbilarmonlarning murojaatlari bilan ishslash va ularga yechim topish maqsadida viloyatda har hafta tadbirkorlar qabuli o'tkazib kelinmoqda.

Tadbirkorlar muammolari o'rganilmoqda

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti oldidan ulardan kelayotgan murojaat va takliflarni o'rghanish maqsadida viloyat hokimligi qoshida shtab va Call-markaz tashkil etildi.

O'z navbatida Investitsiya va tashqi savdo vazirligi Savdo-sanoat palatasi va biznes-ombudsman bilan hamkorlikda 1094 raqamli Call-markaz faoliyati yo'lg'a qo'yilgan.

- Joriy yilning 9-avgust sanasigacha viloyatimiz tadbirkorlaridan 382 ta murojaat tushdi, - deydi Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti viloyat shtabi a'zosi Otobek Adarov. - Murojaatlarning 240 tasi o'rGANIB chiqildi va 187 tasi ijobji hal etildi. 52 ta murojaat rad etilgan bo'lsa, 142 tasi o'rGANISH jarayonida. Murojaatlarning 70 ga yaqini bank sohasiga, 30 dan ziyod shahar va tuman hokimliklari tegishli bo'ldi. Ko'proq kommunikatsiya tarmoqlari, eksportni oshirish, bu boradagi tizimli muammolarni hal etish bo'yicha taklif va tashabbuslar bildirilmoqda. Murojaatlardan tumanlar kesimida boshqa hududlarga nisbatan Samarqand shahri, Narpay, Urgut tumanlaridan ko'p qayd tilmoqda.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.



**Yangi
GESlar**
aholining elektr energiyasiga
bo'lgan talabini qondira oladimi?

Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, xususan, mavjud suv salohiyatidan samarali foydalanish, kichik va o'rta quvvatdagi GESlarni ishga tushirish muhim yechim hisoblanadi.

- Rivojlangan davlatlar atomi va issiqlik elektr stansiyalaridan voz kechib, GESlardan ko'proq foydalanishga harakat qilmoqda, - deydi "O'zgiderenergo" aksiyadorlik jamiyatni 1-son qurilish direksiysi bosh mutaxassisi Abdulaziz Tojiyev. Prezidentning 2022-yil 9-sentabrda «Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga asosan, viloyatda ham 16 ta kichik GESlarni qurilishi ko'zda tutilgan bo'lib, kelajorda mavjud suv resurslaridan foydalaniib, gidroenergetika quvvatlarini oshirish o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda viloyatimiz hududidan oqib o'tuvchi Darg'on kanalida ikkita kichik GES qurilib, foydalanishga topshirildi. Jumladan, Toyloq tumanidagi Navzandak mahallasi hududida qurilgan Shovdor GESi elektr energiyasi ishlab chiqarmoqda. Joriy yilning may oyida ishga tushirilgan mazkur kichik gidroelektrostantsiya "TVYeA" kompaniyasining (Xitoy) 15 million dollarlik investitsiya mablag'lari

hisobidan qurilgan bo'lib, uning 2 ta gidrogeneratorlari soatiga 7,2 MWT tok ishlab chiqarish quvvatiga ega.

- Yangi qurilgan GESlardagi zamonaqiy avtomatishtirilgan qurilma va gidrogeneratorlarni ishlatish juda qulay bo'lib, inson omilini sezilarli kamaytirishi bilan eski GESlardan butunlay farq qiladi, - deydi "Shovdor-1" GES boshlig'i Farhod Toirov. - Butun boshli GES kompyuterlar yordamida boshqariladi. Biror joyda nosozlik paydo bo'lsa, zamonaviy dasturlar orqali aniqlab, zudlik bilan sozlaymiz. Ayni vaqtida to'g' on orqali soniyasiga 80 kub suv o'tadi. Bu esa 10 ming xonadonnni elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun yetarli tok ishlab chiqarish imkonini beradi.

Mana, to'rt oydirki, kanalning Ekip mahallasi hududida ham "TVYeA" kompaniyasi mablag'lari hisobidan "To'palang HPD xolding" MChJ quruvchilari tomonidan qurilgan "Shovdor-2" GESi ham aholi uchun elektr toki yetkazib beryapti.

(Davomi 2-sahifada) >>>

**II MDH o'yinlari:
sportchilarimiz
17 medalni
qo'liga kiritdi**

4-14-avgust kunlari Belarus poytaxti Minsk shahrida II MDH sport o'yinlari bo'lib o'tdi.

O'n kun davom etgan musobaqada birinchi o'rinni 288 ta medal bilan rossiyalik sportchilar, ikkinchi o'rinni 236 ta medal bilan mezonlar egalladi. Uchinchi o'rinni 28 ta oltin, 25 ta kumush, 53 ta bronza, jami 106 ta medal bilan o'zbekistonlik sportchilar qo'liga kiritdi.



Musobaqada yurtimiz sharafini himoya qilgan samarqandlik sportchilar 4 ta oltin, 2 ta kumush, 11 ta bronza medaliga ega chiqdi. Jumladan, og'ir atletika bo'yicha Og'abek Nafasov, dzudo bo'yicha Azamat Oblaqulov, boks bo'yicha Gulsevar G'aniyeva hamda Shavkatjon Boltayev oltin, muay-tay bo'yicha Anisjon Hakimov va boks bo'yicha Sanobar Bozorboyeva kumush medallarga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, 11 nafr sportchimiz og'ir atletika bo'yicha Temurbek Nasimov, muay-tay bo'yicha Davlat Shamsiyev, Rahmatjon Xodjayev, futbal bo'yicha (jamoaviy dasturda) Damir Mamadoliev, kamondan otish bo'yicha (jamoaviy dasturda) Jasmina Nurmanova, Omina Ergashova, gandbol bo'yicha (jamoaviy dasturda) Lobar Shamiyeva, sambo bo'yicha Dilmurod Xolmamatov, yunon-rum kurashi bo'yicha Elmur Xolmominov, Alijon Aliyev, Abror Nurmanov bronza medallarni qo'liga kiritdi.

Turkiyalik yoshlar Samarqandda bo'ldi

Joriy yilning 16-mart kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raisligida Anqara shahrida o'tkazilgan Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdan tashqari sammitida turkiy davlatlar yetakchilari favqulodda vaziyatlarni boshqarish va guumanitar yordam ko'rsatish sohasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari hamda tabiiy ofatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish masalalarini muhokama qilgan edi.



Davlatimiz rahbari sammitda so'zlagan nutqida Turkiyaning Hatay viloyati yoshlarining O'zbekistonga tashrifini tashkil qilish, ularning mazmuni hordiq chiqarishlari hamda qadimiy Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari safarini yushtirish, yurtimiz yoshlari bilan qo'shma tadbirlar o'tkazish taklifi ham ilgari surilgan.

Kecha Turkiya Respublikasining Hatay viloyati yoshlari Samarcanda bo'ldi.

Yoshlar markazida hataylik va samarcandlik mas'ullar hamda volontyor yoshlar ishtirokida "O'zbekiston-Turkiya yoshlarining birdamligi" mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

- Joriy yil fevral oyida Turkiyaning janu-

bi-g'arbiy hududlarida ro'y bergan vayronkor zilzilalar ko'plab qurbanlar va talafoatlarga sabab bo'ldi, - deydi Turkiya Yoshlar va sport vazirligi mas'uli Serhat Sag'ichan. - Shunday og'ir damda qardosh o'zbekistonliklar mamalakatimizga birinchilar qatorida yordam qo'llini cho'zganidan minnatdormiz. Yurtboshingiz taklifi bilan bir guruh yoshlarni zaminingizdagি tarixiy shaharlarga sayohatini boshladik. Bugungi uchrashuvda volontyor yoshlar bilan suhbatalashib, tajriba almashdik, qolaversa, yoshlarimiz madaniy hordiq chiqardi. Do'stiligimiz va hamkorligimiz abadiy davom etadi.

O'z muxbirimiz.

MUSTAQILLIK

32
YIL

EKSPORT MAHSULOTLARI

(tegishli yillardning
amaldagi narxlarida)

1996-yilda –
135,5 milliard so'm
2022-yil
yakuni bilan –
586,1 million
dollar

OTAMNING QATTIQQO'LLIGI MENGA JASORAT BAG'ISHLAGAN

Mahallamiz bolalari futbol o'ynaganda men ham ularga qo'shilib yugurgim, koptok tephim kelardi. Uda, yakka tartibda ta'lrim olishni emas maktabga borib o'qishni istardim.

Oyoqlarimda nogironligim bilan tug'ilganim sog'lomlardek hayot kechirishga to'sqinlik qilardi. Otonam esa yetarlichcha ko'nglimga qarar, bor mehrin berib tarbiyalardi, ammo ortiqcha erkalamas edi. Ya'ni imkoniyatim cheklanganligini hisobga olib, xohlagan ishimi qilishga, vaqtimni behuda o'tkazishga yo'l qo'ymasi edi. Menda boshqa bolalarga qaraganda bo'sh vaqt ko'p bo'lishi tabibiy edi. Telefon va u orgali internet tarmog'idan to'g'ri foydalanishimni ham nazorat qilishardi. Ayniqsa, otamning qattiqqo'lligi menga jasorat bag'ishlardi. Shu sabab vaqtimni behuda sarflamaslikka, hayot uchun kurashishga intillardim. Yangiliklarni kuzatib, nimalarni o'rorganishga, shu yo'l bilan o'zimni ovutishga harakat qilardim.

16 yoshimida ota-onamdan kompyuter jamlanmasi olib berishni itilmos qildim. O'zim tug'ilib o'sgan, Kattaqo'rg'on tumani Qo'shovuz mahallasida aholiga kompyuter xizmatlari ko'rsata boshladim.

Bolaligimdag'i "Nega men boshqa tengdoshlarimga o'xshamayman", degan o'ylar meni tark etdi. Chunki inson hayotda o'z oldiga maqsad qo'yishi va unga doim intilib yashashi kerak ekan. Avvaliga, kichik mag'lubiyatlarga ham uchradm, ammo chekinmadim. Bu muvaffaqiyatsizliklar meni katta yutuqlar sari yetkazdi.

Dastlab, taklifnomalar tayyorlab, to'y-marosimlarda esdalik uchun fotosuratga olish xizmatlari yo'lgan qygandim. Mahallamizda paynet xizmatini tashkil qildim. Keyinchalik kompyuterda turli dasturlarda ishlashni va asosiyasi, videomonitajni o'rgandim. To'yarda xizmat ko'rsatish uchun videostudiya tashkil qildim. Ishlarim yurishib ketdi. "Yoshlar daftari"ga kiritilganim uchun menga bepul notbuk berildi. Bundan tashqari mahallamizdagi yoshlar yetakchisi maslahati bilan 33 million so'm kredit oldim. Tuman markazidan ijara ga bir xona olib, 3 nafar yoshni ishl qildim. Har kuni

Yoshlar hayoti



ofisimga qatnash uchun elektroskuter sotib olganman. Kelgisida faoliyatini kengaytirib, o'quv markazi ham tashkil etish niyatim bor.

O'zimni imkoniyati cheklangan, deb hisoblamayman. Avalo, otanomning menga bergan tarbiyasi, shuningdek, ustozlarimning uyga kelib bergan saboqlari meni hayotda o'z yo'limni topishimga xizmat qildi. Qolaversa, keyingi yillarda mamalakatimda tadbirkorlik uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hatto men kabi nogironligi bo'lgan yoshlarning ham birovdan kam bo'lmay yashashiga xizmat qilyapti.

Jo'rabeK KARVONOV.

Yangi GESlar

aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabini qondira oladimi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Xitoydan kelgan 4-5 nafar mutaxassis qurilish ishlariha ham, uni boshqarishda ham katta yordam berishmoqda. Asosiy butlovchi qurilmalar, gidrogeneratorlar xitolyik hamkorlar tonidan o'rnatilgan.

- Darg'om kanalida yana ko'plab kichik GESlar qurish mumkin, - deydi "TVYeA" kompaniyasi mutaxassisini Li Bang. - Biroq ularni yaxshilab o'rganib, keyin manzilini aniqlash kerak. Mahalliy mutaxassislar zamonaviy texnologiyalarni juda tez o'zlashtirib olishmoqda.

Tumanda ikkita GESning qurilishi aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabining bir qismini qoplashi bilan birga, 20 ga yaqin mutaxassislari ish bilan ta'minladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalishni izchil amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida kanal hududida xususiy investorlar yordamida yana 9 ta mikro GES qurish rejalashitirilgan.

Tumanning Galabotim mahallasida ham Rossianing "Silovie mashini" aksiyadorlik kompaniyasi bilan hamkorlikda kichik GES qurilishi davom etmoqda. Hamkorlimizning



18,4 million dollarlik investitsiya mablag'lari hisobidan qurilayotgan "Shovdor-3" GESining dastlabki gidrogeneratorini o'rnatish ishlari olib borilmoqda. Hozirda qurilish ishlariada 180 nafardan ziyod quruvchi va 20 dan ortiq maxsus texnikadan samarali foydalaniylmoqda.

- Soatiga 6,4 MVT elektr energiyasi ishlabi chiqarishi ko'nda tutilayotgan mazkur kichik stansiyaning generatorlari "Uralgidromash" (Rossiya) kompaniyasi tonidan olib kelinib, montaj qilinmoqda, - deydi "Energoresurs" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi mutaxassis Aleksey Maxarinskiy. - Birinchi generator joriy yilning 1-sentabrgacha ishga tushirilsa, ikkinchisi yana bir oydan so'ng ishlaydi. Xullas, joriy yil yakunigacha GES to'liq quvvat bilan ish-



lab, elektr energiyasi bera boshlaydi.

Yangi GESlar qurilishi bilan birga, ishlab turgan elektrostansiyalar ham qayta modernizatsiya qilinmoqda. Jumladan, "Samarqand GESlari kaskadi" unitar korxonasiga qarashli "Xishrav" GESi ham zamonaviylashtirilmoqda.

- Yurtimizda yashil energetikaga katta e'tibor ahamiyat berilayotgan bugungi kunda o'tgan asrning 70-80-yillardan buyon ishlati kelinayotgan GESlar zamonaviy texnologiyalar bilan yangilanishi kerak, - deydi "Samarqand GESlari kaskadi" unitar korxonasi ishlabi chiqarish bo'limi boshlig'i Shahzod O'limasov. - Prezidentimizning 2017-2021-yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori asosida 2021-yil noyabr oyidan "Xishrav" GESi (GES-2B)da investitsiya loyihalari asosida modernizatsiya ishlabi boshlik yuborilgan. Hozirda Xitoyning "SNVIC" kompaniyasi muhandislari bilan birkalikda amalga oshirilayotgan qurilish-montaj ishlari yakunlandi. Modernizatsiya ishlarda o'zimizning yosh muhandislari ham ishtirok etmoqda. Chunki kelajakda ular yirik gidrostansiyalarni boshqarishadi. Shuning uchun ham zamonaviy elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilish, joriy va muammalat qilishni o'raniib olishlari zarur.

Mazkur kichik gidroelektrostansiyalardan tashqari xususiy investorlarga quvvati 500 kW-gacha bo'lgan mikro gidroelektrstansiyalarni qurish uchun taklif etilayotgan loyihalar mavjud. Jumladan, Toyoq tumanida yana 3 ta, Urgut tumanida yana 3 ta, Darg'om kanalida 6 ta mikro GES qurilishi ko'zda utiligan. Shuningdek, investorlar yordamida Ishtixon tumanidan oqib o'tgan Miyonqol-Xatirchi kanalida 2 ta, Zarafshon daryosining Bulung'ur tumanida 3 ta, Jomboy tumanida 2 ta , jami 16 ta mikro GES qurish taklifi berilgan.

Dilmurod TO'XTAYEV,
"Zarafshon" muxbiri.

Baxtiyor MUSTANOV oлган suratlari.



Huquq-tartibot idoralari

Energetika sohasidagi qonunbuzarlik uchun

16 nafar mansabdorga jinoyat ishi qo'zg'atilgan

Viloyat prokuraturasi organlari tonidan Prezidentning "Yoqil'i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va "raqamlili energonorazorat" tizimini joriy etish to'g'risida"gi farmoni ijrosi bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatilgan.

Xususan, tegishli tashkilot va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlaridan iborat shtablar tashkil etilgan.

Shtablarning asosiy e'tibori energetika sohasidagi huquqbazarliklarni aniqlash, ta'minot korxonalarining kuz-qish masumiga tayorlashdagi muammolini o'raniib, bartaraf etish, vujudga kelgan qarzdorliklarni undirish va avariya holatlarining oldini olishga qaratilgan.

Farmon ijrosini ta'minlashda 6594 ta reyd tadbirlari o'tkazilib, 834 nafar fuqaro mansabdor shaxslar tonidan noqonuniy holatlarga yo'li qo'yib kelinayotganligi aniqlangan. Oqibatda 233 nafar fuqaroga ma'muriy hamda 16 nafar mansabdor shaxsga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Axborot xizmatlari ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Kuchli ta'sir qiluvchi 370 million so'mlik dori vositalari

noqonuniy muomaladan olindi

Tadbir davomida Toshkentdan Samarqand shahriga kelgan shaxs maxsus xardorga 560 dona "Regapen" va 100 dona "Tropikamid" kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini 56 million so'm pul evaziga sotganida mazkur harakatlar tegishli tartibda hujjatlashtirilgan.

Shundan so'ng tezkor kombinatsiyalar davom ettirilib, Bulung'ur tumanida joylashgan YPX maskanida "Epika" avtomashinasi to'xtatib, tekshirilgan. Uning yukxonasi 2 ta qutidagi idishlar ichiga yashirilgan 322 million so'mlik 3836 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari borligi aniqlanib, daliliy ashyo sifatida olingan.

Shuningdek, 1988-yilda tug'ilgan, Toshkent shahar, Yangihayot tumanida vaqtincha yashovchi ayol ushlangan. O'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida noqonuniy muomaladan salkam 368 million so'mlik 4536 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari olingan.

Tezkor-qidiruv tadbirlari davom ettirilmoqda.

Bugunning gapi

2023-yil 15-avgust,
seshanba

Keyingi paytda hududlarda daydi itlar ko'payib borayotgani ko'pchilikni tashvishlantirmoqda. Buni aholidan tushayotgan mu-rojaatlar va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan xabarlar ham tasdiqlab turibdi. Xususan, yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Samarcanda yosh bolaga ko'cha itlari hujum qilgani haqidagi tasvir targalgach, ba'zi hududlarda daydi itlarni om-maviy qirish boshlangani haqida gap-so'zlar bo'ldi. Xo'sh, viloyatda itlar vaqtida emlanyaptimi, ko'cha itlari uchun maxsus joy yo'qmi, ularni kim nazorat qiladi?



DAYDI ITLAR ni nega nazorat qilib bo'lmayapti?

Yoxud bu tizimdagi muammolarga bir nazar

VILOYATDA 3246 NAFAR ODAMGA IT VA MUSHUKLAR TOMONIDAN JAROHAT YETKAZILGAN

Viloyat veterinariya va chorvachilik boshqarmasining ma'lum qilishicha, viloyat bo'yicha 406 ming 802 bosh it va 11 ming 170 bosh mushuk ro'yxatga olingan. Joriy yilning o'tgan davrida 334 ming 594 bosh it, 5473 bosh mushuk quturishga qarshi emlanib, 362 ming 560 bosh it va 7590 bosh mushuk klinik ko'rikdan o'tkazilgan. Shuningdek, 393 ming 835 ta xonadonga it va mushuklarni saqlash tartibi tushuntirilgan.

Bir qarashda bu raqamlardan uy hayvonlarini nazorat qilish ishlari belgilangan tartibda olib borilayotganga o'xshaydi. Aslida ham shundaymi? Nega unda daydi itlar ko'payib ketyapti, ko'cha itlari ovlash mumkinmi o'zi?

- Viloyatda joriy yilning o'tgan davrida 1129 nafr fuqaroga egali va 2117 nafr odamga daydi it va mushuklar tonidan jarohat yetkazilgan, - deydi viloyat veterinariya va chorvachilik boshqarmasi epizootologi Hamdam Umarov. - Xayriyatki, mazkur holatda odamlarda ham hayvonlarda ham hech qanday kasallik alomatlari kuzatilmadi. Uch yil oldin daydi it va mushuklarni ovlash, zaharli xo'rak bilan yo'q qilish mumkin edi. 2021-yilda Jinoyat kodeksiga hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lish haqidagi modda kiritildi.

SHAHARDA HAM ITLARNI EPLAB BO'LMAYAPTI. MUAMMO NIMADA?

Itlar bir yilda uch marta bolalashini hisobga olsak, ko'chada yurgan bitta daydi it kelgusi yilda hech bo'lma-ganda to'rttagacha ko'payadi. Bu itlar zotidan qat'i nazar, uch oylikda murojaatlarga ulgurmey qolamiz.

Ish jarayonida bu kabi muammolar bo'limasligi uchun qo'shimcha brigadalar tashkil qilish, xodimlar

va avtomashinalar sonini ko'paytirish hamda kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlash zarur.

Hayvonlarni 2 yoki 3 nafar xodim bilan tutib, zararsizlantirishga ulgurish tabiiyi, muammoli masala. Buning ustiga, bu xodimlar turli tadbirlarga ham jaib etiladi. Bordi-yu, quturgan it yoki mushuk biron kishini jarohatla-sa, bundan-da yomon yo'q. Yaqinda Samarqanda yosh bolani itlar hu-jumidan taksi haydovchisi qutqarib qolmaganida, qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Shu kabi holatlar takrorlanmasligi uchun mutaxassis kuyinib aytgan muammolarni mas'ullar vaqtida bartaraf qilishi kerak.

XISHRAVDА SAQLANAYOTGAN DAYDI ITLARGА KIM QARAYAPTI?

O'tgan yilning oktabr oyidan boshlab Xishravdagi nazoratsiz hayvonlarni saqlash bo'limida "Terra" hayvonlarni himoya qilish jamiyatni ko'ngillilarit qilishni tuzoqqa tushirish, ularni davolash va ozig'lanitarish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Mazkur hududning bir qismi maishiy chiqindilar, bir qismi esa 800 bosh itni saqlashga mo'ljallangan. Ammo bu yerda 1800 dan ziyod it saqlanmoqda. Bo'lim sanitariya talablariga javob bermaydi, davolanyat-gan itlar ham, yaqinda keltirilganlari ham bir joyda saqlanyapti, jihozlangan tibbiy markaz, maxsus karantin zonasini mavjud emas.

"Terra" hayvonlarni himoya qilish jamiyatni ko'ngillisi Feliks Redkinning so'zlariga ko'ra, itlarni nazorat qilish va parvarishlash maqsadida obodonlashtirish boshqarmasi bilan shartnomaga tuzilgan, shuningdek, yirik homiyalar bilan hamkorlik qilinmoqda. Bu yerga daydi itlar doimiy ravishda tashilmoxda va hozir joylari yetishmayapti. Hududda qavatlar sonini ko'paytirish, veterinar ko'rigi, dezinfeksiya uchun mos joy va oziq-ovqat bilan ta'minlash kerak.

Daydi itlar hozirda viloyatning barcha hududlarida ko'paygan. Ular-dan azyat chekkan aholi bi itlarni nazorat qilish uchun biriktilgan shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalariga timay murojaat qilmoqda. Ularni esa yuqorida aytigan muammolar qiyangapti. Mutaxassislar fikriga ko'ra, odamlarga quturish kasalligi 90-95 foiz holatda itlardan yuqor ekan. Ya'ni, shu kasallik chalangan hayvonlarning tishlashi, tirlashni bilan o'tadi va jarayon og'ir kechib, o'lim bilan tuyagdi. Bunday holat yuzaga kelmasligi uchun esa sohaga e'tibor kerak bo'ladi. O'yalmizki, yuqorida tilga olingan muammolar mutasadiilarni befarq qoldirmaydi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
"Zarafshon" muxbiri.



Unga ko'ra, hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni g'arazli yoki boshqa maqsadlarda ularga azyat yetkazish ularning o'limiga yoxud mayib bo'lishiga olib kelsa, xuddi shuningdek, hayvonlarni qiyang'anlik uchun ma'muriy chora qo'llanilganidan keyin takoran sodir etilsa, BHMning 25 dan 50 baravarigacha jarima, 240 soatgacha jamoat ishlari, 1 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha ozodlikni cheklash yoki 6 oygacha qamoq jazosi qo'llanilishi belgilandi. Shu asosda hoziri daydi itlar ovlanmasdan, maxsus punktlarda saqlanyapti. Ammo viloyatda bunday joy faqat Samarqand shahrida, 16 nafr mansabdor shaxsga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Shuningdek, 1988-yilda tug'ilgan, Toshkent shahar, Yangihayot tumanida vaqtincha yashovchi ayol ushlangan. O'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida noqonuniy muomaladan salkam 368 million so'mlik 4536 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari olingan.

Shuningdek, 1988-yilda tug'ilgan, Toshkent shahar, Yangihayot tumanida vaqtincha yashovchi ayol ushlangan. O'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida noqonuniy muomaladan salkam 368 million so'mlik 4536 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari olingan.

brigada faoliyat ko'rsatmoqda, - deydi Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi nazoratsiz hayvonlarni tutish bo'limi boshlig'i Adham Hamrayev. - Har bitta brigadaga uch nafardan it ovlovchi Siyob, Bog'ishamol hamda Temiryo'l hududlariga biriktilgan. Joriy yilning o'tgan davrida bo'lim xodimlari tonidan 1800 dan ortiq daydi it ushlanib, saqlash joyiga keltirildi. Ammo xizmat vazifamiz yuzasidan aholi va mutasaddilardan juda ko'p e'tirozlar bo'lyapti. Chunki shahar hududida daydi itlar ko'paymoqda. Buning asosiy sabablariidan bire tumanlarda ko'cha itlari saqlanadigan joy yo'q. Shu bois shaharga yaqin boshqa hududlardan ham daydi itlar kirib ketyapti.

Bitta daydi itni tutish uchun kamida yarim kun, ayrim vaqtarda uch-

Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyat markazi tashkil etildi

Shu yil 19-iyunda davlatimiz rahbarining "Ahollining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2023-yil iyuldan boshlab Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyat markaziga aylantirildi.

Ushbu markaz ixtisoslashtirilgan psixiatrik, tibbiy-psixologik va nar-kologik yordam ko'rsatishni yo'liga qo'yadi.

Ushbu yo'nalishlarda yuqori texnologik moddiy baza va ilmiy mabtabni shakllantiradi. Ruhiy salomatlikni ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni sog'iqliqi saqlashning barcha darajalarida muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Hududlardagi ruhiy va narkologiya kasalliklari shifoxonalari va dispanserlari markazning hududiy tashkiliy-metodik bo'linmali hisoblanadi.

Markaz, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Tosh-

kent shahridagi hududiy bo'linmali tibbiyat oliy, professional va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari uchun asosiy klinik baza sifatida faoliyat yuritadi.

Markazning ruhiy salomatlikni muhofaza qilish sohasidagi asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quydigalar belgilandi:

2023-yil 1-sentabrdan boshlab tibbiyat xodimlarini psixiatriya va narkologiya ta'lim yo'nalishlari daagi mutaxassisliklar bo'yicha qayta tayorlash kurslari o'qitish xarakatlari Iqtidorli va malakali tibbiyat mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash

hamda tibbiyat muassasalariga jaib qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

O'quvchilarda o'zini o'zi boshqarish, murakkab hayotiy vaziyatlarni samarali hal etish ko'nikmalarini shakllantirish, depressiya, xavotirli holatlar va suitsidlarning oldini olish bo'yicha maxsus ijtimoiy-emotionsal o'quv soatlarini umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari maktab dasturidagi mavjud fanlar va darsdan tashqari jarayonlar orqali yo'iga qo'yiladi.

M.MIRZAYEV,
viloyat ruhiy kasalliklar
shifoxonasi bo'lim boshlig'i.

Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi bugungi kunning eng dolzarb mavzusi bo'lib qolmoqda. Ushbu kasallik odamdan odamga qon va biologik suyuqliklari (orga miya suyuqligi, sperma) orgali yuqadi.

OITSga qarshi vaksina yo'q

ammo kasallikni erta aniqlash mumkin

OIV retroviruslar oilasiga kiradi. Retroviruslarning xarakterli xususiyati ularning genomi tarkibida juda noyob orqaga qaytaruvchi transkriptaza fermentining borligidir. Qaytala transkriptaza genom tarkibagi genetik to'plam ma'lumotlarini orqaga yo'naltirish xususiyatiga ega.

Me'yorda genetik ma'lumotlar DNKdan RNKGa o'tkaziladi. Retroviruslarda esa qaytala transkriptaza ferment yordamida RNKdan DНK molekulasi sintezlanadi. Buning natijasida virus genomida ko'plab strukturna o'zgarishlari kelib chiqadi va virus antigenlarining doimo o'zgarib turishiha olib keladi. Shuning uchun virus antigeniga qarshi hoslil bo'lgan antitelolar viruslarni qamrab ololmaydi va zararsizlantira olib keladi.

OIV antigenlarining doimo o'zgarib turishi kasallikqa qarshi vaksina ishlab chiqish, kasallikning davosini topishga to'sqinliq qiladi. OIV autoimmun reaksiyalarni aktivlashtiradi, ko'p yadroli hujayralar va limfold hujayralarni zararlaydi. Orttirilgan immun tanqislik sindromini keltirib chiqaradi. Mana shu sabablar asosida SD4 (organizm immuniteti holatiga javobgar hujayralar) hujayralari miqdor jihatdan juda kamayib ketadi, bu esa organizmda chuqur ikkilamchi immun tanqislik holatini keltirib chiqaradi. Organizm himoyasiz bo'lib qoladi va oqibatda oportunitasini kasalliklar va o'smalari hisob bo'lishi faollashadi.

OIV makrofaglar ishtirotida butun organizmga tarqaladi va markaziy asab tizimini ham jarohatlaydi. Virus odam organizmiga tushganidan keyin 3 oydan 10 yilgacha yashirin holat-



da bo'lishi mumkin. Bu davr mobaynida virus immunitet tizimini zararlab boradi. Shu sababli kasallikni o'z vaqtida aniqlash, erta tashxis qo'yish, dispanser nazoratiga olib, davo muolajalarini qilish muhim hisoblanadi.

OITS kasalligining laboratoriyasi tashxisi virusning o'zini yoki bo'lakchalarini aniqlash, virusga qarshi organizmda hoslil bo'lgan antitelolarni aniqlash, organizmdagi immunologik o'zgarishlarni tekshirish kabi uch yo'nalishda olib boriladi. OIVni kasallikning boshlang'ich davrida qonda aniqlasa bo'ladi. Ammo qondiga virusning soni kasallik jarayonida keskin kamayib boradi va uni faqat maxsus sezuvchi usullar (polimeraza zanjiri reaksiyasi) yordamida bilish mumkin. OIV infeksiyasi orttirilgan immun tanqislik sindromi bosqichiga o'tganda qondagi virus miqdori yana biroz ko'tariladi.

Virusga qarshi antitelolar virusini yutqirgan kishilarning bir qismida virus yuqqandan bir yoki bir yarim oydan keyin aniqlanishi mumkin, lekin ko'pchiligidan antitelolar kechiroq paydo bo'ladi. Umuman, OIV yutqirgan kishilarda IFA usulida uch oydan so'ng 90-95 foiz, olti oydan keyin 99 foiz antitelolarni topish mumkin.

Bugungi kunda OITS kasalligining maxsus profilaktik uchun vaksina yo'q. Ammo olib borilayotgan tekshirishlarda vaksina yaratish borasida molekulyar biologiya va gen injenerysi sohasida yutuqlarga erishilmoxda.

Mavluda CHO-YANOVA,
Zuhra HUSANOVA,
viloyat OITSga qarshi kurash markazi
laboratoriya
bo'limi shifokorlari.

Sport pasporti olish uchun qayerga murojaat qilinadi?

— Sportchiman. Sport pasportini olishim kerakligi haqidagi aytishdi. Buning uchun qayerga murojaat qilay?

IBROHIM,
Samarqand shahri.

— Hukumat qarori bilan (309-son, 24.07.2023-y.) "Sportchilarga sport pasportini berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi. Unga ko'ra, sport pasporti ikkinchi o'smirlar sport razryadidan past bo'lmagan razryadiga ega bo'lgan, tegishli sport turi (bir yoki bir necha) bilan muntazam ravishda shug'ullanish kelayotgan va sport musobaqalarida doimiy ravishda ishtiroti etuvchi sportchiga beriladi.

Siz ushbu tabalarga javob bersangiz, Davlat xizmatlari markazlari yoki YalDXP orqali murojaat qilishning mumkin. 16 yoshga bo'lmagan sportchilar uchun ularning ota-onasi yoki qonuniy vakili murojaat qiladi. Ariza DXM orqali taqdim etilganda, ariza beruvchidan BHMinning 1/6 qismi (55 ming so'm) miqdorida yig'im undiriladi. Bunda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan, shuningdek, I val II guruh nogaqronligi bo'lgan shaxslardan yig'im miqdorining 50 foizi undiriladi.

Sport pasportining amal qilish muddati 5 yil bo'lib, undan quydagi maqsadlarda foydalilanadi:

bir jismoniy tarbiya va sport tashkilotidan boshqasiga o'tishda;
sport musobaqalarida ishtiroti etish uchun ro'yxatdan o'tishda;
tibbiy tekshiruvdan o'tishda;
sport unvonlar va sport razryadlarini olish uchun zarur bo'lgan normalar hamda talablarining bajarilishi;
qonunchilik hujjalarda belgilangan boshqa holalarda.

Savolga Samarqand shahar DXM shu'ba boshlig'i Bahrom Kabilov javob berdi.

Yonimizdag'i odamlar

Har safar yoz fasli o'zining tarovati bilan turli - tuman keladi. Biri issiq yoki o'zining iforli yomg'irlari bilan inson qalbiga biroz bo'lsa-da, taskin beradi. Erta tongda daraxtlar ustida sayragan bulbul tovushi umringizga umr qo'shganday bo'laveradi. Gohida sizga taskin bersa, gohi uzoq o'ylarga botiradi. Xayolingizdan o'tayotgan o'ylar hayotingiz zarvaraqlarini varaqlaganday bo'ladi. Ularni varaqlash esa hammaga ham nasib etmagan.

Inson qalbining tarovati bu...



Samarqand davlat tibbiyat universitetida o'qib yurgan kezelimida Samarqand viloyat shifoxonasi navbatchilik qilardim. Ko'pincha terapevt-shifokor Xurshida opa bilan navbatchiligidim to'g'ri kelib qolardi. Aynan shu maskanda tajribali shifokorlardan tibbiyotning sir-asrorlarini o'rganma boshladim. Ming o'qiganidan ko'ra, bir marta ko'rib o'rgangan afzal ekanligi kun kelib asqotganiga guvoh bo'lganman.

Inson hayoti osmondan millionlab shakllarda tushayotgan yomg'ir tomchilariga o'xshaydi. Ularning hayoti ham turlicha kechadi. Kimdadir fayzli, yana kimda faysiz.

Xurshida opa Matlubova o'z hayotini tibbiyat bilan bog'laadi. Mehnat faoliyati davomida yuzlab bemorlarni davolab, oilasi bag'riga qaytishiga sababchi bo'ldi. U davolovchi vrachlikdan bosh shifokorlikcha bo'lgan mas'uliyatlari yo'lni bosib o'tdi. Opa 22 yil davomida Samarqand viloyat ko'p tarmoqli tibbiyat markazini boshqardi. Shu yillar davomida o'z tajribasi va bilimiňi oshirish bilan birga, o'nlab tajribali shifokorlarga ustozlik qildi. Bu davrda tibbiyat markazida o'nlab noyob jarrohlik amaliyotlari bajarildi. Xurshida opa hozirjavob va olyjanob bo'lish bilan birga, o'ta talabchan rahbar edi. Yordam so'rab kelgan birorta insонни noumid qilib jo'natmagani. Rahbar bo'lib

el ko'nglini olish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Hamma rahbarlar ham bunga bardosh berolmaydi.

Tibbiyot markazida ishlayotgan shifokorlardan tortib oddiy farroshlar-gacha Xurshida opaning samimiyligini his qilib turadi. Chunki qachon, qanday yordam so'rasalar, opa doim "labbay", deb javob berib kelgan. Shuning uchun ham Xurshida opani butun jamao bidayat-hummat-izzat qiladi.

Bugun tajribali shifokor, ajoyib rahbar, nabiralarining aziz buvisi bo'lgan Xurshida Matlubova o'zining 75 yoshini yaqin do'stlari, aka-ukalari va farzandlari davrasida nishonlamoqda.

Hurmati Xurshida opa! Qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin. Doim sog'-omon bo'lib, farzandlari nabiralar rohatini ko'rib yuring!

Zayniddin NORMAN,
**O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi,
tibbiyot fanlari nomzodi.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Samarqand davlat chet tillar instituti quyidagi bo'sh ish o'rni bo'yicha berilgan e'longa asosan quyidagi hujjalatlar taqdim etiladi:

T/r	Kafedra	stavka	Lavozim
1	Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi	1	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
2	Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasi	1	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
3	Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasi	2	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
4	Ingliz tilining integrallashish kursi kafedrasi	1	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
5	Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi	1	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
6	Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi	2	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
7	Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi	2	(yosh fiziologiyasi va gigiyena) stajyor-o'qituvchisi
8	Fransuz tili va adapbiyoti kafedrasi	1	(fransuz tili) stajyor-o'qituvchisi
9	Ispan va italyan tillari kafedrasi	2	(italyan tili) stajyor-o'qituvchisi
10	Nemis tili va adapbiyoti kafedrasi	1	(nemis tili) stajyor-o'qituvchisi
11	Rus tili va adapbiyoti kafedrasi	2	(rus tili) stajyor-o'qituvchisi
12	Yaqin Sharq tillari kafedrasi	1	(arab tili) stajyor-o'qituvchisi
13	Koreys filologiyasi kafedrasi	1	(koreys tili) stajyor-o'qituvchisi
14	Yapon filologiyasi kafedrasi	2	(yapon tili) stajyor-o'qituvchisi
15	Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi	1	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
16	Ingliz filologiyasi kafedrasi	2	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
17	Til va tarjima kafedrasi	1	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
18	Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi	1	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
19	(Narpay) umumiylar kafedrasi	2	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi
20	(Payariq) umumiylar kafedrasi	1	(ingлиз tili) stajyor-o'qituvchisi

Bo'sh ish o'rni bo'yicha berilgan e'longa asosan

quyidagi hujjalatlar taqdim etiladi:

- rektor nomiga ariza;
- C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikat;
- ma'lumoti to'g'risidagi diplomlardan nusxa, (ilmiy daraja va ilmiy unvon diplomlari nusxalar);
- ilmiy ishlar ro'yxati (agar bo'lsa);
- pasport nusxasi;
- so'rovnomasi;
- 2 dona 3x4 sm hajmdagi rangli fotosurat;
- ma'lumotnomasi (CV/Resume).

Vakant lavozimlarga davogar bo'lgan talabgorlar institut ekspertlar komissiyasi uchun ochiq dars o'tib beradilar, bu haqda to'liq ma'lumotni institut xodimlar bo'limidan olishingiz mumkin.

Hujjalatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Bo'stonsovay ko'chasi, 93-uy.

**Samarqand davlat chet tillar instituti,
xodimlar bo'limi.**

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Baratova Kudratga (2022-yil 1-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmox

Joriy yil 15-fevralda Vazirlar Mahkamasining
“O’zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini
uchun “Raqamli texnologiyalar yo’nalishida eng yax-
shi startap” tanlovini o’tkazish tartibi to’g’risida”gi
qarori qabul qilingan edi.

Prezident sovrini kimlarga nasib etadi?



Qarorga muvofiq, yoshlar
ning axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari sohasidagi star-
tap loyihalarini qo’llab-quvvat-
lash maqsadida umumiy mukofot
jamg’armasi 1 million AQSh
dollar bo’lgan Prezident sovrini
uchun tanlov joriy yilning may
oyidan boshlab 5 ta asosiy va
1 ta maxsus yo’nalishda o’tka-
zilmoqda.

10-avgust kuni Samarqand
shahridagi Yoshlar markazida
tanloving muhim qismi bo’lgan
“Bootcamp”, ya’ni yoshlarga
yangi loyiha g’oyalarini ishlab
chiqish hamda kengaytirish
uchun platforma taqdim etish

malakali spiker va startaperlar,
soha o’qituvchilar hamda ilmiy
izlanuvchilar tomonidan tushun-
tildi.

- Pul topishning eng katta
yo’li bu startap yaratish, - deydi
rossiyalik spiker Denis Kalishkin.

- Siz startap yaratib, sarmoya
kiritasiz, go’yo daromad un-
chalik tez sur’atlarda o’smayot-
gandek bo’ladi, keyin esa bir
nuqtada u juda tez o’shni
boshlaydi. Faqat startapni to’g’ri
tanlasangiz, mahsulot bozor-
ga mos bo’lsa va texnologik
to’siglar bo’limganda amalga
oshadi. Shuning uchun startap
yaratishdan oldin sohani chuqur

o’rganish, kompyuter va mobil
o’ynlardan katta dasturlargacha
har bitta detalni hisobga olish,
yaratilgan texnologiya odamlar
uchun qulay bo’lishi, muhimi,
yoqishi kerak.

Tadbirda Buxoro, Navoiy,
Jizzax, Qashqadaryo va Samar-
qand viloyatlaridan tanlova
ariza topshirgan ishtirokchilar
qatnashdi.

- Ushbu tadbir yangi aloqa-
rnatish, startap sohasida
mutaxassislar, murabbiylar va
muvaqqiyatlari tadbirkorlardan
qimmatli bilim va yordam olish
imkonini berdi, - deydi buxo-
rolik Jonibek Negmurodov.

- Tanloving birinchi bosqichi-
da o’quv markazlarini avtomat-
lashtirish va o’quvchilarni onlayn
o’qitishga yordam berish uchun
yaratgan platformam saralab
olindi. Bugungi tadbirda ush-
bu platformani eksport qilish
bo’yicha spikerlardan tegish-
li ko’rsatmalarni oldim. Endi
Prezident tanlovida g’olib bo’lib,
mahsulotimni Qozog’iston,
Qirg’iziston, Turkiya va In-
doneziyaga sotmoqchiman.

President sovrini uchun
tanlov 5 ta asosiy yo’nalishda
bo’lib, 1-o’rin uchun 100 ming,
2-o’rin 50 ming, 3-o’rin uchun
30 ming hamda tanloving
maxsus yo’nalishi bo’yicha
(bitta) - 100 ming AQSh dollar
miqdorida mukofot beriladi.

Tanlova ishtirok etish uchun
viloyatimizdan 400 nafardan
ziyod qatnashchi ro’yxatdan
o’tgan. Ayni paytda tanloving
ikkinchi bosqichi davom etmoq-
da va yakuniy bosqich dekabr
oyida tugaydi.

F.FAXRIDDINOV.

O’tgan yil sentabr-oktabr oylarida Xi-
toying Xanchjou shahrida o’tkazilishi
rejalashtirilgan yozgi Osiyo o’yinlari no-
ma’lum muddatga qoldirilgan edi. Ushbu
sport o’yinlari joriy yilning 23-sentabr –
8-oktabr kunlari o’tkazilishi belgilangan
bo’lib, O’zbekiston delegatsiyasi tarkibi-
da 423 nafar sportchi 39 sport turidan
ishtirok etishi kutilmoqda.

Osiyo o’yinlarida 43 nafar samarqandlik sportchi ishtirok etadi



Davlatimiz rahbarining o’tgan yil 5-maydag’i
“2022-yilda Xanchjou shahrida bo’lib o’tadigan XIX
yozgi Osiyo va IV Paraosyo o’yinlariga O’zbekiston
sportchilarini kompleks tayyorlash to’g’risida”gi
qarori asosida sportchilarning musobaqlarga har
tomonlama tayyorligi va muvaffaqiyatlari ishtiroki-
ni ta’minlash maqsadida tizimli ishlar olib borildi,
- deydi viloyat yoshlar siyosati va sport boshqar-
masi olimpiya va paralimpiya bo’limi boshlig’i Ahror
Shamsiyev. - Jumladan, o’tgan davr mobaynida
musobaqlarga tayyorgarlik ko’rish bo’yicha hududiy
dastur ishlak chiqilib, sportchilar va murabbiylarga
tayyorgarlik ko’rishi uchun barcha sharoit yaratildi.
Asosiy va yordamchi sport bazalari sifatida 30 dan
ortiq sport inshooti sportchilar ictiyoriga topshirildi.
Shuningdek, saralash musobaqlari tashkil etilib,
iqtimori sportchilar tanlab olindi. Ayni paytda muso-
baqlar nomzod sifatida saralab olingan 43 nafar
sportchi 17 sport turidan Toshkentdagi o’quv-yig’in
mashg’ulotlariada ishtirok etmoqda.

President qaroriga ko’ra, mazkur sport o’yinlarida
oltin medalni qo’lga kiritgan sportchilarga 10 ming va
trenerlariga 5 ming, kumush medalga sazovor bo’lgan
sportchilarga 5 ming va trenerlariga 2500, bronza
medali uchun sportchilarga 2500 va trenerlariga 1250
AQSh dollar miqdorida pul mukofotlari beriladi.

Test sinovlari tugadi

Samarqandda yetti mingdan ortiq
abituriyent imtihonga kelmadи



1-avgustdan yurtimizda davlat olyi
ta’lim muassasalariga o’qishga
kirish uchun test sinovlari o’tkazildi.
Xususan, Samarqand shahrida yet-
ta yopiq binoda test sinovlari ikki
navbatda tashkil etildi.

Test sinovlarida bir navbatda 3660 nafardan,
bir kunda jami 7320 nafar abituriyent imtihon
topshirdi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi Sa-
marqand viloyati bo’limining ma’lum qilishicha,
viloyatimizda test sinovlariga jami 91475 nafar
abituriyent hujat topshirgan. Ammo ularning
7073 nafari turli sabablariga ko’ra imtihonga
kelmagan. Test jarayonida 9 nafar abituriyent
hudugda kirishda taqiqlagan vosita olib kirishga
uringani, 31 nafar abituriyent imtihon qoidalariiga
rioya etmagani bois imtihondan chetlatildi.

Bu yil viloyatda test sinovlari 13-avgustgacha
(shu kuni ham) davom etdi.

SAMARQAND: KECHA VA BUGUN



AYOL - MILLAT TARBIYACHISI



Bir kishi donishmanddan
“O’g’limni o’qitaymi yo qizimni?”
deb so’raganda donishmand
“Agar o’g’ling yo qizingdan birini
o’qitish kerak bo’lsa, qizingni
o’qit. Chunki o’g’lingni o’qitsang,
bir kishini o’qitgan bo’lasan, qiz-
zingni o’qitsang, butun bir millat-
ni o’qitgan bo’lasan”, deya javob
bergan ekan.

Derhaqiqat, ayol - millat tarbi-
yachisi. Bejiz “Onasi yaxshining
hammasi yaxshi”, deyilmagan.
Agar ayol jismonan, ma’nан
sog’lom bo’lsa, jamiat sog’lom
bo’ladi, chunki kelajak meva-
si - farzandlarni onalar dunyoga
keltiradi, ularga boshlang’ich
ta’lim-tarbiya va odob-ahloqni ona
o’rgatadi. Biz gohida ojiza deb
hisoblaydigan ayol zimmasida shu
qadar katta mas’uliyat, majburiyat
bergan ekan.

To’g’ri, oilada ayol olyi ma’lu-
motli bo’lsa nur ustiga a’lo nur.
Lekin u ma’naviyatlari bo’lishi shart.
O’qigan bo’lmasa-da, uqqaq
bo’lishi kerak. Ba’zida ikki diplomli
ayolning farzandlari egor yo’llarga
kirib ketganda, umri uy yumush-
laridan ortmagan o’rta ma’lumotni
zo’rg’a olgan ayolning farzand-
lari ei so’rab turadi. Buning siri
nimada ekan? Buning siri onalik
ilmida. Ha, bu ilmi o’rgatadigan,
qo’liga bu borada hujat beradi-
gan dorilfunun yo’q. Bu ilm hayot
deb atalmish ulkan dorilfunundan
o’zlashtiriladi, momolar so’zlaridan,
o’tayotgan vaqt zarralaridan
olinadi. Har bi qiyin yo’llarni
yurib o’tganda, iztiroblarni kechib
o’tganda olinadi.

Bugun bu ilm devorlariga darz
ketgandek nazarimda. Negaki,
jamiyatda notinch, mojaroli ollalar,
olani muqaddas bilgaman ollalar,
kelinni qul sifatida ko’rayotgan
qaynonalar, nojo’ya yo’llarga kirib
qolayotgan bolalar borligi shun-
day o’ya borishimizga undaydi.
Ayniqsa, or-nomusini unutib, egori
yo’llarni tanlagan (balki tanlagha
majbur bo’lgan), o’z basidan
kechayotgan, hatto o’ldirishgacha
borayotgan ayol qanday oilada
voyaga yetar ekan? Bu borada
birgina haqiqat bor: u ham bo’lsa,
tarbiyaning to’g’ri berilmagani.

Bugun ona va farzand o’rtasidagi
munosabatlardan havas qilarli
emas. Biz onalar farzandimiz
murg’ak go’idakligida har bir
nafasidan, bosayotgan har bir
qadamidan, kayfiyatidan ogoh
bo’lamiz, ammo unga eng e’-
borli bo’lishimiz kerak bo’lgan
davr o’smirlig chog’ida shun-
day e’tibor bermaymiz. Aynan
shu e’tiborsizligim uning o’zga
joyillarda, masalan, ko’chada, ijti-
moiy tarmoqlarda e’tibor tortishga
urinishiga sabab bo’ladi.

Bugun bolamning usti but,
qorni to’q, deya xotirjam bo’lishga
haqimiz yo’q. Bolangizning ongida
nima bor, ko’nglida nima bor-

shuni bilish muhimdir. Bugungi
ona bolasi qo’lda dunyoni kaft-
dek ko’rsatadigan telefon degan
matoh bormi, bu matohni nazorat
qila oladigan bo’lmog’i shart. Bu
fikrga kelishimga sabab bo’lgan
voqeа bor. Ayol o’smir yoshdagи
o’g’lining ko’chada boshqa bo-
lalarga qo’shilib sang’imasligidan
xursand. Xonasidan chiqmay
o’tirishini dars qilayotganga
yo’adi. Ammo bir kuni darvoza
taqillaydi va ichki ishlar xodimlari
bolani jinoyatda gumon qilib olib
ketadi. Ha, bola ijtimoiy tarmoq-
larda taqilqangan, ekstremizm
g’oyasi singdirilgan saytlardagi
ma’ruzalarni yuklab olib, boshqa-
larga ham ularshgan edi. Onaning
faryodi olamni tutdi: “Bolamning
aybi nima, axir ostona xatlab
ko’chaga chiqmagan bola ham
jinoyatchi bo’ladimi?” Ha, bugun
uydan chiqmasdan ham jinoyatchi
bo’lib qolishi mumkin. Bugunning
onalar ijtimoiy tarmoqning bu
ofatlaridan ham ogoh bo’lmoqlari
kerak ekan.

Ayol ma’naviyati, ilmi, farosati
bolani doimo ezguliklarga, ulkan
marralarga yetaklaydi. Afsuski,
ayrim onalarimiz farzandiga “Sen
odam bo’lmaysan”, “Otang kim
edi-yu, sen kim bo’larding”,
“O’qib olim bo’larmideng”, “Anavi
o’rtog’ing abir, sen unday bo’lol-
maysan” deb dashnom berishi
odatiy holga aylangan. Bu esa
bolanning o’ziga nisbatan ishonchi-
ni yo’qqa chiqaradi.

Kechga butun oila jam bo’lgan
payt televizorning qirq bir kanali
“aylantriladi”, mahallaning so’ngi
yangiliklari muhokama qilinadi.

Ammo bolaning orzu-havaslar,
darslari haqida hech kim qiziq-
maydi. Yaqinlari ichida yolg’iz
bo’lib qolgan bolaning ko’chada
“xardori” topiladi. Eng achinlarisi,
ota-onasi hech narsa bo’laman-
dek “Qayerda xato qildik?” deya
boshini devorga uradi. Holbuki,
bolam uchun ozgina vaqt ajrat-
madim, ayb o’zimda, desa, to’g’ri
bo’lardi.

Ayol ma’naviyatlari bo’lgan oilada
farzandlar qahramonlikni, buyuk-
likni orzu qilib ulg’ayadi. Bunga
juda ko’p hayotiy misollar kelti-
rish mumkin. Bir voqeа meni juda

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

15 AVGUST

Telman RAJABOV –
(1935-2020) Samarqand shahrida
tug’ilgan. Fizit olim. O’zbekiston
Fanlar akademiyasi akademigi.


Nabijon HASANOV –

(1913-1972) Samarqand shahrida
tug’ilgan. O’zbekiston xalq artisti,
bastakor.

20 AVGUST

Begamat ESHQUVVATOV –
1938-yilda Past Darg’om tumanida
tug’ilgan. O’zbekiston Fanlar
akademiyasi akademigi.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining
kompyuter bo’limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand
shahri, Spitamen ko’chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:

G’HASANOV.

Navbatchi: